



ISSN: 2181-9416

4-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 4

LAWYER HERALD

ISSUE 4



SHOMUROTOV Ma'ruf Abdusamat o'g'li

Navoiy viloyat bojxona boshqarmasi bosh yuristkonsulti,
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: shomurotovmf@gmail.com

PROKURATURA ORGANLARINING PARLAMENT OLDidagi HISOBdORLIGINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): SHOMUROTOV M.A. Prokuratura organlarining parlament oldidagi hisobdorligining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 54-61.

 4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-006>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola globallashuv va demokratik islohotlar davrida prokuratura organlarining davlat hokimiyati tizimidagi o'rnini hamda ularning hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Prokuratura organlarining qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishdagi rolini tahlil qilinar ekan, tizimning samaradorligi bevosita uning mustaqilligi va hisobdorligi muvozanatiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Maqolani yozish jarayonida rasmiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tarkibiy va statistik metodlardan foydalanilgan.

Maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida prokuratura faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, xususan, Bosh prokurorning Oliy Majlis Senati oldidagi hisobdorligi va parlament nazoratining ikki bosqichli mexanizmi atroflicha yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba (Janubiy Koreya, Gretsiya) va xalqaro tashkilotlar (BMT, IAP) standartlari asosida tizimdagi mavjud huquqiy bo'shliqlar ko'rsatib o'tilgan. Xususan, Harbiy va Transport prokuraturasi, Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosining hisobdorlik tartibini qonun darajasida aniqlashtirish zarurati asoslangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, "Prokuratura to'g'risida"gi qonunni yangi tahrirda qabul qilish, unda prokuratura organlarining hisobdorligini alohida bob sifatida mustahkamlash hamda prokuraturani aholiga xizmat qiluvchi, ochiq va hisobdor institutga aylantirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan. Shu bilan birga, jamoatchilik va vakillik organlari oldidagi real hisobdorlik prokuratura mustaqilligining kafolati bo'lib, tizimni korrupsion bosimlardan himoya qilishi ilmiy asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: prokuratura islohoti, prokuratura organlari, qonun ustuvorligi, hisobdorlik mexanizmi, mustaqillik, parlament nazorati, inson huquqlari.

ШОМУРОТОВ Маруф

Главный юрисконсульт Навоийского областного
управления таможенной службы,
Самостоятельный соискатель
Института переподготовки и повышения
квалификации юридических кадров при
Министерстве юстиции Республики Узбекистан
E-mail: shomurotovmf@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ ПОДОТЧЁТНОСТИ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ ПЕРЕД ПАРЛАМЕНТОМ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена роли органов прокуратуры в системе государственной власти в условиях глобализации и демократических реформ, а также вопросам совершенствования механизмов их подотчетности. В ходе анализа роли органов прокуратуры в обеспечении верховенства закона и защите прав человека подчеркивается, что эффективность системы напрямую зависит от баланса между ее независимостью и подотчетностью. При написании статьи использовались формально-юридический, сравнительно-правовой, системно-структурный и статистический методы.

В статье подробно рассматриваются конституционно-правовые основы деятельности прокуратуры в условиях Нового Узбекистана, в частности, подотчетность Генерального прокурора Сенату Олий Мажлиса и двухступенчатый механизм парламентского контроля. Также на основе международного опыта (Южная Корея, Греция) и стандартов международных организаций (ООН, МАП) указаны существующие правовые пробелы в системе. В частности, обоснована необходимость уточнения на законодательном уровне порядка подотчетности военной и транспортной прокуратура, Департамент по борьбе с экономическими преступлениями и Бюро принудительного исполнения при Генеральной прокуратуре Республики Узбекистан.

В завершение выдвинуты практические предложения по принятию закона «О прокуратуре» в новой редакции, закреплению подотчетности органов прокуратуры в отдельной главе и превращению прокуратуры в подлинную «народную прокуратуру». При этом научно обосновано, что реальная подотчетность перед общественностью и представительными органами является гарантией независимости прокуратуры и защищает систему от коррупционного давления.

Ключевые слова: органы прокуратуры, верховенство закона, механизм подотчетности, независимость, парламентский контроль, права человека, народная прокуратура.

MA'RUF Shomurotov

Chief Legal Adviser of the Navoi Regional
Customs Administration,
Independent Researcher at Training
Institute for lawyers under the Ministry
of Justice of Uzbekistan
E-mail: shomurotovmf@gmail.com

IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL FRAMEWORK FOR THE ACCOUNTABILITY OF PROSECUTORIAL BODIES TO PARLIAMENT

ANNOTATION

This article is devoted to the role of the prosecution authorities in the system of state power in the context of globalization and democratic reforms, as well as the issues of improving their accountability

mechanisms. Analyzing the role of the prosecution authorities in ensuring the rule of law and protecting human rights, it is emphasized that the effectiveness of the system directly depends on the balance between its independence and accountability. In the process of writing the article, formal-legal, comparative-legal, systemic-structural, and statistical methods were used.

The article explores in detail the constitutional and legal foundations of the prosecutor's office in the conditions of New Uzbekistan, in particular, the accountability of the Prosecutor General to the Senate of the Oliy Majlis and the two-stage mechanism of parliamentary oversight. Also, based on international experience (South Korea, Greece) and standards of international organizations (UN, IAP), existing legal gaps in the system are indicated. In particular, the necessity of clarifying the procedure for accountability of the Military and Transport Prosecutor's Offices, Department for Combating Economic Crimes and Bureau of Compulsory Enforcement under the General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan at the legislative level is substantiated.

At the end of the study, practical proposals were put forward for the adoption of the Law "On the Prosecutor's Office" in a new edition, strengthening the accountability of the prosecution authorities in a separate chapter and transforming the prosecutor's office into a genuine "People's Prosecutor's Office". At the same time, it is scientifically grounded that real accountability to the public and representative bodies is a guarantee of the independence of the prosecutor's office and protects the system from corrupt pressures.

Key words: prosecution authorities, rule of law, accountability mechanism, independence, parliamentary oversight, human rights, people's prosecution.

Bugungi globallashuv va demokratik islohotlar sharoitida prokuratura organlarining davlat hokimiyati tizimidagi o'рни, vakolatlari hamda hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prokuratura organlari qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda davlat manfaatlarini muhofaza qilishda muhim davlat-huquqiy institut sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli, mazkur organlarning samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning tashkiliy-huquqiy maqomi, mustaqilligi va hisobdorlik tizimining qay darajada yo'lga qo'yilganligiga bog'liq hisoblanadi. Rus huquqshunos olimi V.M. Savitskiy prokuratura organlari faoliyatining samaradorligi ularning mustaqilligi bilan bir qatorda hisobdorlik mexanizmlarining mavjudligiga ham bog'liq ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, "prokuratura ustidan samarali nazorat bo'lmagan davlatda qonun ustuvorligini to'liq ta'minlash mumkin emas" [1]. Bundan tashqari, xitoylik olim Yu Mou prokuratura organlarining boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar ustidan nazorat vakolatlarini tahlil qilib, prokuratura nazorati davlatdagi qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim institutsional vositasi ekanligini ta'kidlaydi [2]. O'zbek huquqshunos olimi A.X. Saidov demokratik huquqiy davlat sharoitida barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan prokuratura faoliyati ham inson huquqlari ustuvorligi va qonuniylik prinsipi asosida amalga oshirilishi lozimligini ta'kidlaydi hamda nazorat va hisobdorlik mexanizmlari huquqiy davlat barqarorligining muhim kafolati ekanligini qayd etadi [3].

Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri prokuratura organlarini xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi, ochiq va hisobdor organga aylantirishdan iboratdir. Ushbu transformatsiya jarayonining huquqiy asosi, avvalambor, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'zining fundamental aksini topgan. Konstitutsiyaning XXV bobi prokuratura organlarining huquqiy maqomini belgilab beruvchi bosh manba hisoblanadi. Xususan, Bosh qomusimizda prokuratura tizimi ustidan parlament nazoratining ikki bosqichli mexanizmi o'rnatilgan:

Institutsional darajada: Konstitutsiyaning 109-moddasi va 95-moddasi 8-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori lavozimiga tayinlash jarayoni bevosita parlamentning yuqori palatasi – Senat bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Mazkur huquqiy konstruktsiya prokuratura organlarining vertikal boshqaruv tizimida "O'zaro tiyib turish va muvozanat" (checks and balances)

tamoyilini realizatsiya qilib, prokuratura organlarining vakillik organlari oldidagi siyosiy-huquqiy determinatsiyasini shakllantiradi.

Funksional darajada: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 95-moddasi 8-bandida Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolati sifatida Bosh prokurorning hisobotlarini eshitish tartibining belgilanishi – prokuratura faoliyati ustidan tizimli parlament nazoratini amalga oshirishning fundamental huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu konstitutsiyaviy tamoyillar "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning (yangi tahriri) 14-moddasida yanada kengroq qamrab olingan. Unga ko'ra, Bosh prokurorning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis Senati oldidagi hisobdorligi qat'iy belgilab qo'yildi. Bu esa tizimning yopiqlikdan ochiqlikka o'tganini, uning faoliyati ustidan ham davlat rahbari, ham parlament orqali xalq nazorati o'rnatilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi 913-XII-son qonuni 24-moddasida Xalq deputatlari Kengashining vakolatlariga tegishli prokurorlarning faoliyati to'g'risidagi axborotini har yili eshitishi belgilangan. Jumladan, Prokuratura organlari tomonidan 2025-yil davomida mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish borasida davlat organlarining huquqiy hujjatlarini tizimli ravishda o'rganish natijasida: – 173 305 ta prokuror nazorati hujjatlari, qonunbuzilishi sabablarini bartaraf etish borasida 32 339 ta taqdimnomalar qo'llanilgan, 1 448 435 003 so'm zararni undirish haqida sudlarga 20 481 ta arizalar kiritilgan, 24 378 nafar shaxs qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ogohlantirilgan, 562 555 nafar shaxsning buzilgan huquqlari tiklangan. Hisobot davrida prokuratura idoralari tomonidan 391 692 murojaatlar hal etilib, 300 878 nafar fuqarolarning qabuli (shu jumladan hududlarga chiqqan holda) ta'minlangan [4].

Shu o'rinda, mamlakatimizda prokuratura organlarining ochiqligi va hisobdorligini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar esa, hali-hamon davom etayotgan bo'lib, bu borada prokuratura organlarining huquqiy maqomini yanada takomillashtirish va prokuror hisobdorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni bilan xalqaro standartlarga asosan prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish alohida yo'nalish sifatida belgilangan. Bunda:

birinchidan, xalqaro standartlarga muvofiq prokuratura faoliyati ustidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish;

ikkinchidan, prokuratura faoliyatining shaffofligini va uning jamiyat oldidagi hisobdorligini ta'minlash, prokurorlar malakasini uzluksiz oshirish;

uchinchidan, prokuratura tizimi boshqaruvida kollegial organlar rolini kuchaytirish nazarda tutiladi.

Shu bois, bugungi kunda prokuratura organlarining hisobdorligini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlarda prokuror hisobdorligini belgilovchi normalar bugungi kun islohotlardan orqada qolmoqda.

Jumladan, amaldagi qonunchilikda hisobdorlik belgilangan, biroq ushbu normalarni realizatsiya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari va tartibi to'liq yaratilmagan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi harbiy prokurori va transport prokurori, Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi hamda hududiy prokuratura organlarining faoliyatiga oid hisobdorlik masalalari ochiq qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli prokuratura – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida prokuratura organlarining qonuniylikni qat'iy ta'minlovchi, ochiq va adolatli faoliyat yuritishining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida faoliyatning shaffofligini oshirish, jamoatchilik bilan muloqotni kuchaytirish hamda organlar faoliyati samaradorligi va mas'uliyatini yuksaltirish vazifalari belgilangan [5]. Mazkur yo'nalishlar prokuratura organlarining jamiyat oldidagi hisobdorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim institutsional mexanizmlarni rivojlantirish uchun zarur huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, Prokuratura organlari faoliyatining oshkoraligini ta'minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash hamda ularning jamiyat oldidagi hisobdorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu yo'nalishda tizimli islohotlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Binobarin, Jeffrey Bellin prokurorni "Qonun xizmatchisi" (servant-of-the-law) deb ataydi. Uning fikricha, prokurorlar o'z vakolatlarini suiiste'mol qilmasliklari uchun ularning faoliyati ustidan jamoatchilik va vakillik organlarining real nazorati o'rnatilishi shart. Hisobdorliksiz berilgan keng vakolat "huquqiy despotizm"ga olib kelishi mumkinligidan ogohlantirishi bejiz emas [6]. Shu o'rinda, nemis huquqshunos olimlari]. Gutmann va S. Voigt prokuratura mustaqilligi va hisobdorligi o'zaro bog'liq institutlar ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, prokurorlarning davlat organlaridan mustaqil faoliyat yuritishi o'z-o'zidan yetarli bo'lmay, bunday mustaqillik samarali hisobdorlik mexanizmlari bilan ta'minlangandagina davlat mansabdor shaxslarining qonunbuzarliklari ustidan samarali prokurorlik nazoratini amalga oshirish imkoniyati ortadi [7]. Shubhasiz, prokuratura mustaqilligi uning daxlsizligini yoki nazoratdan xoliligini anglatmaydi. Aksincha, olimlarning fikricha, hisobdorlik – prokuratura mustaqilligining me'yori va kafolatidir. Chunki jamiyat oldida hisobdor bo'lgan prokuraturagina korrupsion bosimlardan va siyosiy o'yinlardan xoli bo'lib, chinakam adolat o'rnatuvchi organga aylanadi.

Shu bois, amaldagi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan hisobdorlik prinsipini yanada takomillashtirish va uning amaliy mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu yo'nalish, birinchi navbatda, prokuratura organlari faoliyatini xalqaro huquqiy standartlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Xususan, BMT (UNODC) hamda Xalqaro prokuratura assotsiatsiyasi (IAP) tomonidan 2014-yilda Vena shahrida qabul qilingan "The Status and Role of Prosecutors" hujjatida prokurorning mustaqilligi uning hisob bermaslik maqomini anglatmasligi, balki u belgilangan davlat hokimiyati organlari oldida hisobdor bo'lishi lozimligi ta'kidlangan.

Ikkinchidan, qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan samarali nazoratni ta'minlash maqsadida davlat va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini uyg'unlashtiruvchi zamonaviy hisobdorlik tizimini joriy etish huquqni qo'llash amaliyotining shaffofligi va samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, jumladan, Janubiy Koreya prokuratura tizimida prokuratura faoliyati ustidan parlament nazorati hamda fuqarolik nazorati institutlarining mavjudligi prokurorlarning hisobdorligini ta'minlash va ularning siyosiy betarafligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, amaldagi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasi 2-qismida prokuratura organlarining yagona markazlashgan tizim ekanligi hamda quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlar va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori oldida bo'ysunishi va hisobdorligi mustahkamlab qo'yilgan. Shu nuqtai nazardan, ilmiy yondashuv doirasida asosiy e'tibor prokuratura organlarining ichki iyerarxik hisobdorligini saqlagan holda, uning tashqi hisobdorlik shakllarini, xususan Oliy Majlis oldidagi parlament nazorati mexanizmlarini yanada kuchaytirish va takomillashtirish zaruratiga qaratiladi.

2001-yil 29-avgustda "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-son Qonunini yangi tahrirda qabul qilish kerak hamda mazkur yangi tahrirdagi qonunda prokuratura organlarining hisobdorligini alohida bobda belgilash lozim va mazkur bobda prokuratura organlarining hisobdorlik faoliyatini aniq va qat'iy ta'rifini belgilash lozim. Zero, ikki asr oldin bildirilgan "Eng katta jinoyat – qonun qo'riqlovchilari tomonidan sodir etilgan jinoyat" haqidagi fikr hali ham o'z dolzarbligini kamaytirmagan [9]. Jumladan, Prokuratura organlari faoliyatida ochiqlik va hisobdorlik prinsiplarini mustahkamlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorlik doirasini quyidagicha qat'iy belgilash lozim: "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oldida hisobdordir".

Ushbu munosabatlar doirasida Bosh prokuror tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot taqdim etishning differensiallashgan muddatli tartibi joriy etiladi:

qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida – muntazam ravishda;
o'ta og'ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to'g'risida – zudlik bilan;
prokuratura organlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida – har olti oyda.

Shu bilan birga, Parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida, Bosh prokuror har yili 31-martga qadar o'z faoliyatiga doir umumiy statistik va tahliliy ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisida muntazam ravishda hisobot shaklida taqdim etishi lozim. Qiyosiy-huquqiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday tajriba xalqaro amaliyotda ham mavjud. Chunonchi, Moldova Respublikasi Bosh prokurori ham har yili 31-martga qadar mamlakat Parlamentiga prokuratura organlari faoliyati yuzasidan yillik hisobot taqdim etadi [10]. Parlament yalpi majlisida ushbu hisobot eshitiladi va senatorlar tomonidan prokuratura tizimi faoliyati baholanadi.

Tahlil natijasida vertikal boshqaruv va mahalliy vakillik organlari oldidagi mas'uliyatni oshirish maqsadida, quyi prokurorlarning hisobdorlik tizimini ham transformatsiya qilish lozim degan xulosaga keldik: "Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori oldida hisobdordir. Viloyat va Toshkent shahar prokurorlari bevosita O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadilar va uning oldida hisobdor bo'ladilar. Tuman va shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar yuqori turuvchi tegishli prokurorga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadi hamda ularning oldida javobgardir".

Bundan tashqari, hududiy prokurorlarning mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqasini mustahkamlash maqsadida quyidagi majburiyatlarni yuklash maqsadga muvofiq:

"har yarim yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga hamda tegishli xalq deputatlari Kengashlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etish;

yiliga kamida bir marta Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini hududdagi qonuniylik va jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida xabardor qilish".

Prokuratura organlari faoliyatida transparentlikni (shaffoflikni) ta'minlash maqsadida, "Viloyat va hududiy prokuratura organlari rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari taklif etiladigan xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining ochiq yalpi majlislarida yiliga kamida ikki marta aholini o'z faoliyati yakunlarining umumlashtirilgan statistik va tahliliy ma'lumotlari bilan xabardor qilib borishi belgilanishi lozim". Bunda, mahalliy Kengash tomonidan hisobot yuzasidan qabul qilingan qaror O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining prokuratura organlari faoliyati ustidan nazorat qiluvchi komissiyasiga hamda tegishli prokuratura organlarining hay'atlariga yuborilishi ta'minlanishi lozim. Mazkur tartib tizimdagi har qanday darajadagi prokuratura organlari rahbarlari faoliyatini ikki tomonlama mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Bunda ichki (yuqori turuvchi prokuratura organlari tomonidan idoraviy nazorat shaklida) hamda tashqi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan parlament nazorati doirasida) baholash mexanizmlari o'zaro integratsiya qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, Senat tomonidan Bosh prokurorning yillik hisobotini eshitish jarayonida hududiy prokurorlar faoliyatining samaradorligi to'g'risidagi obyektiv va tizimlashtirilgan ma'lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu o'rinda quyidagi masalaga alohida to'xtalib o'tish joiz, Bosh prokuratura tarkibidagi ikkita yirik organ Prokuratura departamenti va Byurosi faoliyati ham yopiqlicha qolmoqda. Shu o'rinda aytish mumkinki, mazkur tuzilmalarning hozirgi faoliyat amaliyotida hisobdorlik masalasi hanuzgacha deklarativ xarakterga ega bo'lib qolmoqda. Xususan, Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda ularning vakillik organlari oldidagi vertikal hisobdorlik zanjiri aniq protsessual mexanizmlar bilan mustahkamlanmagan. Bu esa, o'z navbatida, ushbu organlar tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ustidan nafaqat parlament, balki jamoatchilik nazoratining ham cheklanishiga olib kelmoqda. Shu bois, mazkur maxsus tarkibiy tuzilmalarning hisobdorligini "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun darajasida qat'iy belgilash, ularning ochiqlik va shaffoflik darajasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, MIB tomonidan har yili o'rtacha 40 trillion so'mga yaqin mablag'lar harakati va millionlab ijro hujjatlari nazorat qilinadi. Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti esa trillionlab so'mlik iqtisodiy jinoyatlarni fosh etadi. Bunday ulkan moliyaviy va huquqiy vakolatlariga ega tuzilmalarning faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratining sustligi, vakolatlar suiiste'mol qilinishi xavfini

(riskini) oshiradi. Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, 2021-yildan boshlab MIB hududiy boshliqlari mahalliy Kengashlarga hisobot berishi belgilangan bo'lsa-da, Byuroning markaziy rahbariyati darajasidagi umumlashtirilgan hisobdorlik "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunda prokuratura tizimining ajralmas qismi sifatida to'liq ochib berilmagan.

Yuqoridagi normalar to'g'ri yo'lga qo'yilgandan so'ng prokuratura organlarining jamoatchilik va vakillik organlari oldidagi hisobdorligi ta'minlanib, ularning faoliyati shaffofligi va samaradorligi oshiriladi.

Shuni yana alohida ta'kidlash kerakki, hisobotlarni tuzish, taqdim etish hamda mahalliy Kengash tomonidan eshitish va muhokama qilish, prokuror hisobotlarini rad etish, to'g'riligini monitoring qilish, Kengash qarori natijalari asosida prokurorning javobgarligi hamda u bilan bog'liq protsessual normalarning mavjud emasligini inobatga olish lozim. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tomonidan "Prokuratura organlarining hisobdorligining namunaviy nizom" to'g'risidagi Qarorini ishlab chiqish hamda unga yuqoridagi normalarni konkret belgilash lozim.

O'rganishlar davomida, prokuror hisobdorligi huquqshunos olim O.M.Madaliyev ta'kidlagandek, "Mustaqillik tamoyili – bu prokurorlar tomonidan o'zlarining barcha funksional qaror va harakatlarini qonunga asosan olib borishlaridir (nazoratni amalga oshirish, tergov olib borish va b.)" [11]. Fikrimizcha ham, prokuratura mustaqil-hisobdor bo'lishi lozim. Chunki, amaliyotda prokuratura organlarining mustaqil hisobdorligi:

Birinchidan, amaliyotda mustaqillik prokurorning qonun ustuvorligini ta'minlashda hech qanday siyosiy yoki ma'muriy bosimga berilmasligini anglatadi. Ikkinchidan, prokuror o'z faoliyatini oshkora amalga oshirsa-da, vaqti-vaqti bilan o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish samaradorligi haqida hisobot berishi lozim. Uchinchidan, xalqaro tajribadan ham ko'rish mumkinki, MDH davlatlaridan tashqari bir qator davlatlarda prokuratura organlari konstitutsiyaviy huquqiy asoslari prokuraturaning mustaqilligini ko'rsatadi. Misol uchun, Gretsiya konstitutsiyasining 87-moddasi 3-bandida "Prokuratura organlari faoliyati mustaqil va ular sudyalardan ustidan nazorat olib boradi" deb ko'rsatilgan. Bundan tashqari, Yevropa kengashi Vazirlar qo'mitasining 2000-yil 6-oktabrdagi tavsiyalarida jamoatchilik prokuratura organlari faoliyati to'g'risida xabardor qilinishi lozimligi belgilanganligini ham inobatga olish lozim [12].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, amaliyotda prokuratura "Hukumatdan mustaqil, lekin Parlament va jamoatchilikka hisobdor" modelida ishlashi kerak. Uning mustaqilligi – qonunni himoya qilish uchun qurol, hisobdorligi esa – shu quroldan suiiste'mol qilmaslik uchun jilovdir. Mazkur modelning huquqiy maqomini mustahkamlash faqatgina tegishli qonunchilik hujjatlariga konseptual o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani tizimli ravishda takomillashtirish orqali amalga oshirilishi lozim.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. В.М. Савицкий "Прокурорский надзор и законность: попытка нового осмысления" <https://cyberleninka.ru/article/n/prokurorskiy-nadzor-i-zakonnost-v-rossiyskoy-federatsii/viewer>.
2. Yu Mou "Overseeing Criminal Justice: The Supervisory Role of the Public Prosecution Service in China" "Journal of Law and Society" jurnali (2017-yil, 44-tom, 4-son), https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/jols.12060?utm_source
3. Saidov A.X. Inson huquqlari: Darslik. – Toshkent: "Adolat", 2021. 77-bet.
4. FAOLIYATNING OCHIQLIGI. <https://prokuratura.uz/faoliyatochiqligi>.
5. "Raqamli prokuratura — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 03.11.2025 yildagi PF-204-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-7813706>
6. Bellin J. Theories of Prosecution. California Law Review, 2020 <https://californialawreview.org/print/theories-of-prosecution/>.
7. Gutmann, J., Voigt, S. The Independence of Prosecutors and Government Accountability // Supreme Court Economic Review. – 2019. – Vol. 27. – P. 1–19. DOI:10.1086/703749. <https://www.journals.uchicago.edu/doi/full/10.1086/703749>

8. The Status and Role of Prosecutors: A United Nations Office on Drugs and Crime and International Association of Prosecutors Guide (2014). chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/14-07304_ebook.pdf
9. Ibragimov Z.S. Davlat hokimiyati tizimida prokuraturaning o'ri va roli (qiyosiy-huquqiy tahlil). Avtoref. – Toshkent, 2010. 53-bet.
10. Moldova Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi Qonuni (Legea cu privire la Procuratură, Nr. 3 din 25.02.2016) https://csp.md/sites/default/files/inline-files/legea%203.pdf?utm_source
11. Madaliyev O.M. Prokuror nazorati. Darslik. Umumiy qism. -T.: TDYUI nashriyoti, 2009. –B.106 https://api.unilibrary.uz/storage/PublisherResourceFile/320113/images/1685081207.pdf?utm_source=chatgpt.com
12. EXPLANATORY MEMORANDUM: [//efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.barobirlik.org.tr/dosyalar/duyurular/hsykkanteklifi/erec\(2000\)19expmot.pdf](https://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.barobirlik.org.tr/dosyalar/duyurular/hsykkanteklifi/erec(2000)19expmot.pdf).

YURIST AXBOROTNOMASI
4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА
HOMEPI 4

LAWYER HERALD
ISSUE 4

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/4
2026-YIL